

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Suv tanqisligi sharoitida hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun maqbul sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati, sug‘orish suvlarining mineralizatsiyasi, sho‘r yuvish, nam suv berish, sug‘orish me‘yorlari va muddatlari, ekin turi, o‘zgaruvchan ob-havo sharoitlarini hisobga olgan holda xalqaro FAO uslubini maxalliy sharoitga adaptatsiya qilinadi; - Soha ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarini maqbul sug‘orish tartiblari va me‘yorlari bo‘yicha olib borilgan nazariy va dala tadqiqot natijalarini taxlil qilinadi; - Halqaro FAO uslubini maxalliy sharoitga adaptatsiya qilishda zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bazasi (mintaqalar bo‘yicha o‘rtacha oylik ko‘p yillik ob-havo ma‘lumotlari, tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvlar sathi va mineralizatsiyasi, asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekish muddatlari va vegetatsiya davomiyligi va boshqalar)ni shakllantiriladi; - Halqaro FAO uslubi asosida maqbul sug‘orish me‘yorini asoslashda ekin koeffitsientlarni nazariy va bajarilgan dala tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqiladi; - Asosiy ekin turlari bo‘yicha ishlab chiqilgan dastlabki sug‘orish me‘yorlarini halqaro FAO uslubi asosida o‘zgaruvchan ob-havo sharoiti, tuproq sho‘rlanishi, sizot suvlari sathi va mineralizatsiyasini hisobga olib korrektirovka qilinadi; - Suv tanqisligi sharoitida hududlar kesimida asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun maqbul sug‘orish tartiblari va me‘yorlari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Suv xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Suv xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Suv xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.